

Yangi O'zbekistonda Sohalarni Raqamlashtirish Samaradorligi

Гулрух Арслон кизи Исмоилова

Карши Давлат университети Иқтисодиёт кафедраси Moliya va Moliyaviy texnologiyalar 2-курс талабаси

Anototsiya: Ushbu maqolada sohalarni raqamlashtirish hamda oliy ta'lim muassasalarida tizimni raqamlashtirish masalalari ochib berilgan. Muallif o'quv jarayoniga raqamlashtirishni joriy etish ta'limni rivojlanishi bilan bog'liq har tomonlama tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, texnika, iqtisod, oliy ta'limda raqamlashtirish, samarali va zamonaviy texnologiyalar.

Kirish

Elektron hukumat tizimini joriy etish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekistonning yaqin kelajakdagi strategik taraqqiyot rejasida muhim o'rin egallaydi. Bu, eng avvalo, elektron hujjat almashinuvi hajmini yanada kengaytirish hamda davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich raqamli formatga o'tkazish vazifalariga qaratilgan. Ushbu jarayonda telekommunikatsiya infratuzilmasi asosiy tayanch bo'lib, uning rivojlanishi raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirda tez rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalari raqamlashtirishga asoslanayotganini ko'rish mumkin. Ushbu jarayonni XXI asrning muhim belgisi sifatida baholash o'rinlidir. Shu bois, mamlakatimizda raqamlashtirishni rivojlantirish va takomillashtirish yo'lida keng qamrovli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-dekabr kuni tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilning o'zida ta'lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo'jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Ushbu yig'ilishda, davlatimiz rahbari raqamlashtirish mahalladan boshlanishi kerakligini ta'kidladilar. Shu bois mutasaddilarga "Raqamli mahalla" yagona platformasini ishga tushirish va "mahalla yettiligi"ni raqamli tizimlardan foydalanishga o'qitish topshirildi.

Yig'ilishda vazirlik va tarmoqlardagi raqamlashtirish holati tahlil qilindi. Iqtisodiyot tarmoqlarida tannarxni tushirish faqat va faqat raqamlashtirish orqali bo'lishi ta'kidlab o'tildi.

Barchamiz bilamiz muxtaram Prezidentimiz 2023 yil 11-sentabrdagi farmoni bilan O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqladilar.

Farmonda qayd etib o'tilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar o'z ifodasini topgan:

- barqaror iqtisodiy o‘rta orqali **o‘rtadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo‘shilish;**
- xalq ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan **ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish;**
- aholi uchun **qulay ekologik sharoitlar** yaratish;
- xalqqa xizmat qiluvchi **adolatli va zamonaviy davlat qurish;**
- mamlakat **suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash**[1].

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi va jamiyatda keng targ‘ib qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilibgina qolmay, ta’lim jarayonining sifati kelajakda davlatning malakali mutaxassislar bilan ta’minlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari hamda universitetlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni tobora dinamik ravishda o‘zgarib bormoqda. Bugungi globallashtirilgan dunyoda universitetlar iqtidorli talabalarni jalb etish, yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni saqlab qolish hamda barqaror moliyaviy resurslarni shakllantirish yo‘lida o‘zaro keskin raqobatga kirishgan. Mazkur raqobatda zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etgan, innovatsion yondashuvlarga asoslangan va raqamli imkoniyatlardan samarali foydalangan oliy ta’lim muassasalari sezilarli ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Bu esa universitetlarning global maydondagi nufuzini oshirish bilan birga, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratish va ularni tizimli ravishda hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda faol rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot bevosita mamlakatlarning ichki iqtisodiy taraqqiyoti va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja’atnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman "[1]. Yangi raqamli texnologiyalar axborot jamiyatining asosi sifatida qabul qilinadi. Axborot jamiyati - bu jamiyat a’zolarining aksariyati axborotni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan jamiyat deb ta’riflanadi [2].

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha korxonalar va tashkilotlar haqida ma’lumotlarga bir nazar solamiz:

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha, yillik)³

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Web-portallar	49	70	97	109	128	137
Kino- videofilmlar va televidion dasturlar tayyorlashning ishlab chiqarish bosqichi	44	42	53	59	63	44
Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish	1065	1127	1382	1457	1588	1223
Boshqa telekommu-nikatsiya xizmatlari ko‘rsatish	606	805	1017	1255	1253	992
Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	561	710	896	1121	1618	1602
Kompyuter texnologiyalari	272	309	387	461	536	583

sohasidagi maslahat xizmatlari						
Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat	122	149	198	243	290	269
Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	1051	1217	1433	1596	1993	1694
Axborot va aloqa	6975	7901	9517	10587	12204	10551

Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida);³

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	15750,8	19241,3	22112,1	25167,9	28166,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	890,8	1032,8	1184,9	1386,5	1438,3
Andijon viloyati	1206,8	1451,6	1752,6	1918,9	2228,4
Buxoro viloyati	812,1	962,5	1147,6	1393,3	1449,2
Jizzax viloyati	542,4	636,9	756,7	1620	955,5
Qashqadaryo viloyati	1125,6	1400,8	1646,8	1650,6	2068,2
Navoiy viloyati	517,3	608,6	714,9	996	892,9
Namangan viloyati	1164,9	1342,3	1585,5	1745,5	1962,1
Samarqand viloyati	1468,4	1745,5	2069,8	2088	2624,7
Surxondaryo viloyati	933,6	1123,7	1287,7	1312,3	1644
Sirdaryo viloyati	426,4	488,5	570	791,4	710,5
Toshkent viloyati	957	1198,1	1418,7	1811,5	1906,3
Farg'ona viloyati	1502,9	1882,4	2809,6	3184,6	3669,4
Xorazm viloyati	848,1	985,5	1149,3	1435,4	1423,9
Toshkent shahri	3354,4	4382,1	4018	3834,1	5193,2

Raqamlashtirish ta'lim jarayonini yanada samarali va jozibador qilish imkonini beradi. Xususan, multimediali darsliklar, interaktiv mashqlar hamda virtual laboratoriyalar orqali o'quv materiallari vizual va amaliy jihatdan boyitiladi. Ushbu innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning mavzuni yanada chuqurroq anglashlariga yordam berib, bilimlarni mustahkamlash jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish sur'ati va ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim metodlarini qo'llash imkoniyati yaratiladi. Natijada, ta'lim sifati oshib, zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, kreativ va tanqidiy fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash jarayoni jadallashadi. Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonining ahamiyati va zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki global raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonini interaktiv, qulay va samarali qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, oliy ta'limda raqamlashtirishni keng tatbiq etish bir qator muhim tashkiliy va texnik masalalarni hal qilishni talab qiladi. Jumladan, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalarga moslashtirish, ilg'or innovatsion usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, universitetlarda zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirish, yuqori tezlikdagi internet va ilg'or dasturiy ta'minot bilan ta'minlash, shuningdek, talabalar uchun turli xil raqamli ta'lim resurslari va platformalarini yaratish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Natijada, raqamlashtirish oliy ta'lim tizimini yanada samarali va zamonaviy qilish barobarida, talabalarning bilim olish jarayonini innovatsion texnologiyalar orqali boyitib, ularning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ishchi guruhi Qarshi davlat universitetida amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Respublikamiz korxonalar tizimida keng ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda Qarshi davlat universitetida ham ta'lim berish va ta'lim olish jarayonida oxirgi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Axborot resurs markazida zamonaviy kompyuterlar, elektron QR-kodli adabiyotlar, zamonaviylashgan texnologiyalar asosida, talabalar bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining natijadorligini oshirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o'quv laboratoriyalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, xorijiy ta'lim va tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalar ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/12/strategy/>
2. Tursunov, M. O. O. (2023). O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish: yutuqlar va muammolar. *Scientific progress*, 4(2), 213-217.
3. Stat.uz
4. Хайриддинов, Ш. Б., & Менглибойев, С. Т. (2023). Бюджет муассасаларида молиявий ресурслардан самарали фойдаланишни ўзига хос усуллари. *Research Focus*, 2(12), 27-32.
5. Жўраев, О. Н. (2022). Ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришнинг назарий асослари. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 581-590
6. Джумаева Г. Ж., Яхшикулова М. Т. (2023). Анализ проблем организации внутреннего аудита в акционерных компаниях. *Образовательные исследования в области универсальных наук*, 2(3), 764-769.